(20). Вербицкий А.А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции. А.А.Вербицкий, О.Г.Ларионова. М., "Логос", 2017.

(21). Masharipova F., K.Mizell. Active reading strategies in content-based instruction. Central Asian Problems of Modern Science and Education 2021 (1), p. 37–56.

Xuramov Ilxom Panjiyevich (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti; e-mail:xuramovilxom@gmail.com)

BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINING INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining kelgusi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim jarayonlarida innovatsion usullar orqali interfaol metodlarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirishda talabalik davridayoq kerakli bo'lgan bilim va ko'nimlarini egallab borishi masalalari muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *professional ta'lim, oliy ta'lim innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, metod, pedagog, faoliyat, bilim, ko'nikma.*

Хурамов Илхом Панджиевич (Термезский государственный университет, PhD докторант; e-mail: xuramovilxom@gmail.com)

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы формирования у будущих педагогов профессионального образования умений использовать интерактивные методы в образовательном процессе посредством инновационных методов в будущей профессионально-педагогической деятельности, а также приобретения необходимых знаний и навыков в студенческие годы для повышения их периодической и непрерывной методической подготовки на протяжении всей профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, высшее образование, инновационные технологии, интерактивные методы, метод, преподаватель, деятельность, знания, умения и навыки.*

Khuramov Ilkhom Panjievich (Termez State University PhD student; E-mail:khuramovilxom@gmail.com)

DEVELOPMENT OF FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS' SKILLS IN USING INTERACTIVE METHODS

Annotation. *This article discusses the issues of developing the skills of future vocational education teachers to use interactive methods in educational processes through innovative methods in their future professional pedagogical activities, and acquiring the necessary knowledge and skills during their student years to increase their periodic and continuous methodological training throughout their professional activities.*

Keywords: *professional education, higher education, innovative technologies, interactive methods, method, teacher, activity, knowledge, skills.*

Kirish. Dunyo miqyosida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablardan biri XXI asr pedagogikasini innovatsion texnologiyalar hamda interfaol ta'lim metodlari asosida takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko'nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik mustaqillik har doim pedagogik faoliyatda alohida ahamiyat kasb etsa-da, zamonaviy pedagog uzluksiz ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-farmoni [2] bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Interfaol metodlarining mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha – "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi "interfaol" (ing. "interact"; "interaktiv"; "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" – harakat qilmoq, ish ko'rmoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.


Interfaollik – ta'lim jarayoning ishtirokchilarning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li mashg'ulotlaming interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra, interfaol metodlar XXI asr ta'limida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashning muhim vositalaridan bin sanaladi. Manbalami o'rganish ta'lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asming 20-yillarida qo'llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o'tgan asming 60-yillaiida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta'lim tizimiga interfaol metodlami tatbiq etish tajribasini uchratish mumkin [8].

XX asming 70–80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili [3], V.F.Shatalova [5] kabilar tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda o'qitishga bo'lgan qiziqishni ku-chaytirish yo'llarim topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodiaming amaliy ahamiyati, ulami samarali qo'llash shartlari to'g'risida so'z yuritilgan.

Interfaol metodlar deganda, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'-lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi [4].

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi. Ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda, o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtayi nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi, bir vaqtning o'zida, barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholab biladi.



1-rasm. "Kichik guruhlarda ishlash" metodini qo'llash texnologiyasi.


"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3–6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

"Muammoli vaziyat" metodi. Ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

"Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak,

aks holda, yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. "Muammoli vaziyat' metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.



2-rasm. "Muammoli vaziyat" metodini qo'llash texnologiyasi.

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Qarorlar shajarasi ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yyechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.


"Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan, kurs asoslari borasidagi murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul yechimni topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir.

"Qarorlar shajarasi" metodini qo'llash texnologiyasi quyidagi shaklda keltirilgan.

Ta'lim metodlarini tanlashda ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, tahsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlari, ta'lim metodlarining samaradorligi, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlari va o'qituvchining mahorati kabi mezonlarni hisobga olish zarur.

Ta'limning maqsadi tahsil oluvchilarda muayyan kasb bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hamda shaxs sifatlarini shakllantirishdir. O'quv faoliyatlarini amalga oshirishda turli metodlarni birgalikda qo'llash lozim. Shuning uchun ta'lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil bo'lib, o'quv mashg'ulotlarning didaktik vazifasi xizmat qiladi. Ta'lim metodlarini tanlashning ikkinchi mezoni dars jarayonidagi tahsil oluvchilar sonini hisobga olishdir. O'quv jarayonini to'g'ri tashkillashtirishda tahsil oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko'pchilik bo'lmasa, faol o'qitish metodlaridan foydalanib, o'qitishni jadal sur'atda olib borish mumkin. Agar buni aksi bo'lsa, ularning har biriga yetarli darajada e'tibor berish uchun vaqt yetishmasligi sababli, tahsil oluvchilarni boshqarish qiyinlashadi. Katta guruhlar uchun o'quv

materialini bayon qilishda og‘zaki usullardan: ma’ruza, hikoya, tushuntirish kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



3-rasm: “Qarorlar shajarasi” metodini qo‘llash texnologiyasi.

Muhokama. O‘quvchilarning o‘quv imkoniyatlari, bunda tahsil oluvchilarning yoshi, darslarga tayyorgarlik darajasi hamda jamoadagi o‘zaro munosabatlarni hamda tahsil oluvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini e’tiborga olish muhimdir. Tahsil oluvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari bo‘yicha quyidagi darajalarga bo‘lish mumkin.

Birinchi daraja–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to‘liq tushunadi, vazifani bajarishda qoidalarga rioya qiladi va uni ish oxirigacha esda to‘liq saqlaydi. Diqqat bilan vazifalarni aniq bajaradi, bajargan ishini nazorat qila oladi, agar xatoga yo‘l qo‘ysa, buni sezadi va bartaraf eta oladi. Ishni topshirishga shoshilmaydi hamda uni to‘g‘ri, chiroyli, tartibli bajarilganini yana bir bor tekshiradi.

Ikkinchi darajasi–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to‘liq tushunadi, vazifani bajarish qoidalariga rioya qiladi va uni ish oxirigacha esda to‘liq saqlaydi. Ish jarayonida ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yishi mumkin, lekin uni sezmaydi va tuzatmaydi. Bajargan ishni tekshirish vaqtida ham xatolarni sezmaydi. Yaxshi baho olishga intilishi bo‘lgani bilan, uni ish sifati qiziqtirmaydi.

Uchinchi darajasi–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini faqatgina bir qismini tushunadi, lekin mashg‘ulot oxirigacha uni esda saqlab qolmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganda faqat e’tibor-sizlik tufayli emas, balki vazifani bajarish qoidalarini eslab qolmaganligi uchun ham xatolarga yo‘l qo‘yadi. Xatolarn,i odatda, sezmaydi, ish jarayonida tuzatmaydi, vazifani tekshirayotganida ham sezmaydi. Ishni yaxshilashga xohish bildirmaydi. Olingan natijalarga sovuqqonlik bilan ishga qaraydi.

To‘rtinchi darajasi–o‘quvchi vazifaning kichik qisminigina tushunadi, lekin shu zahotiyoq uni batamom esdan chiqaradi. Xatolarni sezmaydi, ularni tuzatmaydi, vazifaning to‘g‘ri bajarilganligini tekshirishga vaqt sarflamaydi.

Beshinchi darajasi–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini, umuman, tushunmaydi, faqatgina qalam bilan qog‘ozdan foydalanish kerakliginigina ilg‘ab oladi.

Ta’limning davomiyligi–ta’lim metodlarini tanlashga ta’sir etadi. Bunda darsga ajratilgan vaqtni, vazifani bajarishga sarflanadigan vaqtni hamda ta’lim metodlarini amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqtni hisobga olish zarur.

O‘quv-moddiy sharoitlari. Bunda mavjud shart-sharoitlariga asoslanish zarur. Ba’zi metodlarni qo‘llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan xona va h.k. Agar siz maxsus o‘quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan metodlardan foydalanmoqchi bo‘lsangiz, ularning naqdligini ta’minlashingiz kerak.

O‘qituvchining mahorati–bunda tahsil oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga, o‘qitish metodlarining ta’sir darajasini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. Masalan: tahsil oluvchilarning o‘quv materiallarini idrok qilish paytida ularning qancha ko‘p sensorik (sezgi) kanallaridan foydalanilsa, esda olib qolingan bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Agar bilimlar faqat «ma’ruza»lar orqali (passiv tinglash yo‘lida) berilgan bo‘lsa, unda 3 kundan so‘ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin, xolos. Agar u ma’ruzalar o‘qish (tinglash), namoyish va ko‘rgazmali qilish (ko‘rish, ushlab ko‘rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to‘g‘risida bahslashilsa, unda 3 kundan so‘ng 75%ni esga tushirish mumkin. Agar bilimlarni

idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo‘lsa, ma’lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o‘tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi hisoblanadi.

Tahsil oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga o‘qitish metodlarining ta’sir darajasi:

1. Ma’ruza-eshitish orqali –5%.
2. O‘qish orqali –10%.
3. Videousul, namoyish–ko‘rish orqali– 20%.
4. Tajribani namoyish qilish orqali –30%.
5. Bahs-munozara–muhokama qilish orqali –40%.
6. Mashqlar–o‘qigan, yozgan, gapirish orqali –50%.
7. Ishbop o‘yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash–mustaqil o‘qish, tahlil va muhokama qilish, himoya va namoyish qilish orqali –75%.
8. Yo‘naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o‘qitish – mustaqil o‘rganganimizni tahlil va muhokama qilish, boshqalarni o‘qitish orqali berilayotgan axborotni 90%i esda saqlanib qolishi mumkin [8].

Xulosa. Xulosa qilib, shuni ta’kidlash joizki, ta’lim metodlarini tanlashda yuqorida sanab o‘tilgan mezonlariga asoslangan holda, o‘quv jarayonlarini to‘g‘ri loyihalashtirish orqali tashkil etilsa, berilayotgan o‘quv materiallari mazmuni tahsil oluvchilar ongiga tez va oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanilishiga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish”. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-farmoni.

(3). Амонашвили Ш.А. Школа жизни. М., Издательский Дом Шалвы Амонашвили. 1998, с. 200–144.

(4). Dehkanova M.U. Kasb ta’limi metodikasi. O‘quv qo‘llanma, ToshTYMI, T., 2013, 148-bet.

(5). Сухомлинский В.А. Воспитание и самовоспитание. “Советская педагогика”, 1965, №.12, с. 34–40.

(6). Shomirzayev M.X., Karimov I.I. O‘qitish texnologiyasida innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., “Universitet”, 2020, 125-bet.

(7). Шаталова В.Ф. Когнитивный аспект теории и практики. Донецкие чтения – 2024, 331 с.

(8). O‘tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, “Innovatsiya Ziyo”, 2019, 149-bet.

Mustafayeva Nilufar Ulashovna (Termiz davlat universiteti doktoranti)

PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan foydalanish mexanizmlari zamonaviy ta’limda muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon o‘qituvchilarga nafaqat tilni o‘rgatish, balki uni ijtimoiy-madaniy kontekstda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ, til, metodika, muloqot, o‘qituvchi, pedagogika, mexanizm.*

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТАКСОНОМИИ БЛУМА В РАЗВИТИИ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация. *Механизмы использования таксономии Блума в формировании прагматической компетентности будущих учителей английского языка важны в современном образовании, поскольку этот процесс помогает учителям не только изучать язык, но и овладевать навыками его эффективного использования в социокультурном контексте.*

Ключевые слова: *коммуникативный, язык, методика, общение, учитель, педагогика, механизм.*

PEDAGOGICAL FEATURES OF USING BLOOM'S TAXONOMY IN DEVELOPING PRAGMATIC COMPETENCE

Annotation. *The mechanisms of using Bloom's Taxonomy in developing pragmatic competence of future English language teachers are of great importance in modern education, as this process helps tea-*